

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**EFFECTIVE WAYS OF ORGANIZING
LEARNER CENTERED CLASSES
IN ENGLISH LANGUAGE CLASSROOM**

Xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO'PLAMI

23 APREL , 2024

« Effective ways of organizing Learner Centered Classes in English language classroom» xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari.

Buxoro – 2024 - 359-bet

Buxoro davlat universiteti rektori O.X.Xamidovning 2024 yil 9 mart 146-U-sonli buyrug'i asosida 2024 yil 23-aprel kuni "Effective ways of organizing Learner Centered Classes in English language classroom" mavzusidagi xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjumani bo'lib o'tadi.

Mas'ul muharrir:

Mirzaev Ibodullo Kamolovich – filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

N.B. Ataboyev, D.I. Xodjaeva, F.M.Xajieva, G.P. Nazarova,
M.B.Axmedova, O.X.Ganieva, A.A. Fayzieva, S.B. Xamdanova,
G.I. Xamraeva, N.S. Zokirova, L.X.Xaydarova,

Taqrizchilar:

Rasulov Zubaydullo Izomovich – filologiya fanlari doktori, dosent
Qosimova Nafisa Farxodovna - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dosent

2. Abduraxmonova, N. Z. "Linguistic support of the program for translating English texts into Uzbek (on the example of simple sentences): Doctor of Philosophy (PhD) il dis. aftoref." (2018). Abdurakhmonova N. The bases of automatic morphological analysis for machine translation. Izvestiya Kyrgyzskogo gosudarstvennogo tekhnicheskogo universiteta. 2016;2 (38):12-014. -264 c

3. Brill E. 1995. Transformation-Based Error-Driven Learning and Natural Language Processing: A Case Study in Part-of-Speech Tagging // Computational Linguistics. Vol. 21. -P. 543-565. <http://acl.ldc.upenn.edu/J/J95/J95-4004.pdf> 12. Johansson S. Some aspects of the development of corpus linguistics in the 1970s and 1980s // Corpus Linguistics. An International Handbook / eds A. Lüdeling, M. Kytö. Vol. 1. Berlin; New York: Walter de Gruyter, 2008. P. 33-53. 13. O'zbek tili milliy korpusi -muhim madaniy voqelik (davra suhbat) / "Ma'rifat", 11.08.2021. № 32 (9357).

4. Talal Itani, Quran in English(October 13, 2014) EPUB 2 (DRM-Free)

5. MP3 Quran.app Mishary Rashid

INGLIZ VA O'ZBEK KORPUSLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

F.f.f. PhD N. B. Ataboyev

Buxoro Davlat Universiteti

n.b.ataboyev@buxdu.uz

Ergashova Kamola Ikromovna

Buxoro Davlat Universiteti

Ingliz adabiyotshunosligi va

tarjimashunoslik kafedrası

Qiyosiy tilshunoslik va linguistik

tarjimashunoslik mutaxassisligi

magistranti

k.i.ergashova@buxdu.uz

UDK: 81-139

Annotatsiya: Ushbu maqolada Inglizcha va o'zbekcha korpuslar va ularning hajmi , ularda foydalanilgan adabiyot turlari , so'z ko'lamini, foydalanuvchiga taqdim eta oladigan imkoniyatlari haqida so'z boradi va bu ma'lumotlar ularni bir biridan farqini va ko'lamini aniqlab olishga yordam beradi. Shuningdek korpus lingvistikasi va uning ahamiyati , bugungi kunda tutgan o'rni haqida ham tegishli ma'lumotlar berilgan.

Annotation: This article provides information about English and Uzbek corpora and their size, the types of literature used in them, the scope of words, the possibilities they can provide to the users, and this information defines their difference and scope. It helps to get relevant information about corpus linguistics, its importance and its place today.

Аннотация: В данной статье рассказывается об английских и узбекских корпусах и их размере, видах используемой в них литературы, объёме слов, возможностях, которые они могут предоставить пользователю, и эта информация определяет их различие и объём. Также дается актуальная информация о корпусной лингвистике, ее значении и месте сегодня

Kalit so'zlar: elektron lug'at , til korpusi, milliy korpus, lingvistika, token qidiruv, lingvodidaktika, axbarot texnologiyalari

Kirish

Bugungi kunda jadal rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalari dunyo tillarinig birmuncha imkoniyatlaridan foydalanish borasida misli ko'rinmagan imkoniyatlar eshigini ochdi. Zamonaviy elektron lug'atlar buning yaqqol misoli bo'lib , ularni tuzish va ulardan foydalanish birmuncha til imkoniyatlarini egallashda samarador bo'lsa, til korpuslarining vazifasi , samaradorligi , bu borada tutgan o'rni beqiyos bo'lib kelmoqda. Ma'lumki, kompyuter texnologiyalarining korpus tilshunosligida qo'llanilishi natijasida til korpuslari

asosida soʻzning qoʻllanish davri va chastotasini aniqlash, terminologiya sohasini rivojlantirish, gap qurilishini oʻrganish va tahlil qilish, tarjima dasturlari uchun n-tilli baza yaratish, uslubiyatni oʻrganish, elektron lingvodidaktikani rivojlantirish, ayniqsa, turli lugʻatlarni yaratish imkoniyatlari kitoblardan avtomat jarayoniga oʻtdi va koʻplab qulayliklarni yuzaga keltirdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Yuqorida taʼkidlab oʻtganimizdek, elektron lugʻatlarni yaratishda til korpuslari kerakli soha terminalogiyasida birlamchi vosita boʻlib xizmat qiladi. Shuningdek, ikki yoki koʻp tilli parallel korpuslarning tarjima bazasi yordamida tarjimon lugʻatlari [Boliang Zhang 2020], avtomatik tarjima dasturlarining lingvistik bazalarini shakllantirishda yirik resurs vazifasini bajaradi. Qisqa qilib aytganda, muayyan tilning milliy korpusi -bu shu tilning koʻp funksiyali va maqsadli korpusidir. Masalan “uzbekcorpora” Oʻzbek tilining milliy korpusi , Oʻzbek tilining taʼlimiy korpusi , Oʻzbek tili korpusi buning yaqqol misolidir. Oʻzbek tilining milliy korpusi Oʻzbekiston Respublikasi innovasiya vazirligining 2021 yilgi 30-turdagi “Oʻzbek tilining milliy korpusini loyihalash va dasturiy majmua ishlab chiqish” (2020-2022) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan. Oʻrnatilgan tartibda oʻtkazilgan tanlov natijalari boʻyicha ushbu loyihani bajarish uchun Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oʻzbek tilini rivojlantirish jamgʻarmasi bilan shartnoma tuzilgan. Bu korpus 6 boʻlimdan iborat bolib, bu boʻlimlar foydalanuvchiga loyiha haqida maʼlumotlar berib cheklanmasdan , korpusdagi mavjud matnlarning statistik va konkordans tahlillarini beradi. Shuningdek korpusda soʻzlar matnda qanday holatda uchragan boʻlsa, shu holatda keltirilgan va kompyuter yordamida ularni statistik jihatdan ishlashning imkoni paydo boʻldi. Masalan : Alpomish dostonining Fozil Yoʻldosh oʻgʻli variantining elektron lugʻati olingan . Doston MS Word dasturida tayyorlangan 623 Kb hajmli *.txt formatdagi fayldan iborat boʻlib , dostonning ushbu varianti dastur yordamida qayta ishlangan soʻng unda

jami 14413ta soʻz ishlatilgan va ularning qoʻllanilishi 82106 soʻzni tashkil qilgan. Elektron lugʻatda 82106ta birlik hosil boʻlgan. Oʻzbek tilining milliy korpusi foydalanuvchiga maʼlum bir soʻzning grammatik tavsifi , leksik maʼnosi va soʻzning ishlatilish oʻrinlari va turli birikmalar bilan birikish holatlarini ochib koʻrsatib beradi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Shuni taʼkidlash oʻrinliki, har qanday korpus bazasida tilning barcha uslublariga mansub oʻta katta hajmdagi matnlarning boʻlishi , matnlarning lingvistik, morfologik va sintaktik jihatdan teglanishi, korpusning meta-maʼlumotlari mavjud boʻlishi zaruriy talablardan hisoblanadi. Mazkur talablar Oʻzbek tilining milliy korpusi bilan bir qatorda Oʻzbek tilining taʼlimiy korpusida ham oʻz aksini topgan . Bu korpus, asosan, taʼlim jarayonida til oʻrgatish taʼlim jarayonida turli amaliy mashgʻulotlarni bajarish, tadqiqot jarayonida matn elementlaridan foydalanish, taʼlimga oid fan sohalari terminologiyasini shakllantirish kabi masalalarda asosiy vosita hisoblanadi. Bir necha yillar davomida olib borilgan tadqiqotlar va 2020-2021-yillardagi amaliy saʼy-harakatlar natijasida Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti Kompyuter lingvistikasi va raqamli texnologiyalar hamda Amaliy tilshunoslik va lingvodidaktika kafedralari hamkorligida AM-FZ-201908172 raqamli “Oʻzbek tilining taʼlimiy korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida OʻZBEK TILINING TAʼLIMIY KORPUSI yaratildi. Bugungi kunda mazkur korpusda 1) mosfoanalizator (avtomatik morfologik tahlil); 2) soʻz(shakl)ni boʻgʻinlarga ajratish; 4) izoh (lar)ini taqdim etish; 5) antonimlarini koʻrsatish; 6) sinonimizator (qidiruvga yozilgan soʻzga uning maʼnodoshlarini taqdim etish dasturi); 7) soʻzning talaffuzdosh (paronim)ini uning izohi bilan berish; 8) qidiruvga berilgan soʻz bilan bogʻliq “Ona tili qomusiy lugʻati”dan maʼlumotlarni taqdim etish; 9) qidiruvga berilgan soʻz qatnashgan iboralarni koʻrsatish; 10) uning turli xususiyatlari boʻyicha darajalanish qatorini namoyish etish

imkoniyatlari mavjud. Ta'lim jarayonida ta'limiy korpusdan foydalanish o'quvchiga tilni egallashning professional-relevant aspektlarini yuzaga chiqarish imkonini yaratadi. Masalan, til kurslarida bo'lajak tarjimonning e'tiborni leksik birliklarga, huquqshunosda esa terminologiyaga qaratish ko'nikmasini shakllantiradi. Ta'limiy korpus talaba e'tiborini matndagi birlikni bog'lab turuvchi vositani farqlashga ham qaratadi. Shunday yo'l bilan korpus tilni o'rganuvchi ta'lim oluvchilar guruhiga kasbga yo'naltirilgan ta'limda asosiy omil sanalgan differensial yondashuvni qo'llashga zamin yaratadi.

Inglizcha korpuslar haqida so'z yuritganimizda bu sohada naqadar keng qamrovli ishlar olib borilganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bir qancha inglizcha korpuslar mavjud bo'lib ularning har biri o'z tarixi, o'ziga xos afzalliklariga egaligi bilan foydalanuvchiga har tomonlama mukammal ishlash imkonini beradi. Britaniya milliy korpusi(BNC) ni nazarda tutadigan bo'lsak, bu korpus 20- asrning 2-qismida og'izaki nutqni o'stirish va il imkoniyatlarida yanada kengroq foydalanish uchun yaratilgan. Korpusning yuz million so'zdan iborat ekanligi uning maqsadga qanchalik muvofiq ekanligini ko'rsatib beradi. Korpus 10% og'izaki va 90% yozma manbalardan iborat bo'lib, yozma qismi turli mintaqaviy gazeta va jurnallar, akademik kitoblar, ilmiy va ommabop jurnallardan ko'chirmalar va nashr etilgan va etilmagan xatlardan iborat bo'lsa, og'izaki qismi yozilmagan norasmiy suhbatlarning ortografik transkripsiyalardan, yosh izlanuvchilarning demografik jihatdan muvozanatli tarzda yozib olingan matnlari, og'izaki nutq namunalari va telefon, radio so'zlashuvlaridan yozib olinganligi e'tirof etilgan. Britaniya milliy korpusi monolingual bo'lishiga qaramay unda international so'zlarni ham uchratish mumkin. Shu bilan bir qatorda korpus juda ko'p turli uslublar va navlarni o'z ichiga oladi va biron bir mavzu sohasi, janr yoki registr bilan cheklanmaydi.

XULOSA:

Xulosa qilib aytganda , korpus lingvistikasi bugungi kunda sodir bo'layotgan bir qancha muammolarni hal qilishda salmoqli o'ringa ega. Inglizcha va o'zbekcha korpuslar funksional va tuzilish jihatdan bir biridan farq qilsada , o'zining xususiyatlari va o'ziga xosligi bilan ajralib tursada, lingvistik yuksalishga xizmat qiladi va foydalanuvchiga bir qator qulayliklar taqdim etadi. Shuni ta'kidlash joizki, korpusdagi so'zlar ro'yxatini yaratish oson va tez amalga oshirilmasada , natijalar har doim qiziqarli bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Primov A. Tilining milliy korpusini yaratish korpusini yaratish muammolari // Tilshunoslikning dolzarb muammolari. Actual problems of linguistics. / DOI:10.13140/RG.2.2.31122.89280.
2. Mengliyev B. va Hamroyeva Sh. "Korpus lingvistikasi: korpus tuzish va undan foydalanish": Amaliy mashg'ulot uchun qo'llanma (Uzbek Edition) Paperback – September 5, 2020.
3. Кокорева А. А. Корпус параллельных текстов в обучении иностранному языку // Вестник Тамбовского госуниверситета. Гуманитарные науки
4. Maslova V.A. Lingvokulturologiya / V.A. Maslova: Talabalar uchun darslik. Yuqoriroq darslik -M.: "Akademiya" nashriyot markazi
5. <https://fll.jdpu.uz/index.php/fll/article/view>

TWO GROUPS OF COSMONYMS

Khodjaeva Dilafruz Izatilloevna

Associate Professor of Bukhara State University, PhD

d.i.xodjaeva@buxdu.uz

Ergasheva Maftuna Bayramaliyevna

Master student of Bukhara State University

m.b.ergasheva@buxdu.uz

	Mavzusi	Ma'ruzachi	Beti
1.	Til – Millat Ko'zgusi, Madaniyat Xaritasi	O.X.Hamidov	4
2.	Ta'lim Tizimida Chet Tillarini O'rgatishni Takomillashtirishda Ilg'or Tajribalar	A.K.Safarov	6
3.	Innovative ways of teaching active words of the Lesson	R.A.Ergashev a	8
4.	Reflection On The Results Of The Survey On The Impact Of Gender Difference On The Language	G.P.Nazarova	11
5.	The Concept Of a Linguistic Corpus	Ataboyev Nozimjon Bobojon o'g'li, Astanova Gulnora Maqsudovna	14
6.	Inglizcha Va O'zbekcha Diniy Matnlar Tarjima Tahlilida Islomiy Terminlar-- Payg'ambarlar Ismlari Tarjima Tadqiqi	Ataboyev Nozimjon Bobojon o'g'li Abdullayeva Nigina Abdukadirovna	19
7.	Ingliz Va O'zbek Korpuslarining O'ziga Xos Xususiyatlari	Ataboyev Nozimjon Bobojon o'g'li	23

		Ergashova Kamola Ikromovna	
8.	Two Groups Of Cosmonyms	Khodjaeva Dilafuz Izatilloevna Ergasheva Maftuna Bayramaliyevna	28
9.	Atoqli Otlar Tarjimasida Translitteratsiya Va Transkriptsiya	Qosimova Nafisa Farhodovna Nosirova Lobar Roziqovna	32
10.	The Problem Of Linguistic Differences Between The Original Text And The Translated Text	Qosimova Nafisa Farxodovna Haydarova Gulnora Rajabovna	36
11.	Ingliz Va O‘zbek Tillaridagi “Baxt” Bosh Leksemali Maqollardagi Universal Va Milliy Jihatlar	Qosimova Nafisa Farhodovna	40